

**FOZIL YO‘LDOSH O‘G‘LI IJODIDA KO‘CHIMLARNI QO‘LLASH ORQALI  
NUTQIY TEJAMKORLIKKA ERISHISH MAHORATI**

**Xudoyberdiyeva Asaloy Azimovna**

*Buxdu filologiya fakulteti talabasi*

*axudoyberdiyeva@icloud.com*

**ANNOTATSIYA**

*Fozil Yo‘ldosh O‘g‘li repertuari mavzu va janr jihatidan boy va rang-barang. U qirqdan ortiq xalq dostonlarini yod bilgan va yuksak mahorat bilan kuylagan. Uning dostonlari xalq tilida aytilganligi bilan jozibali hisoblanadi. Shu bilan birga, uning dostonlarida qo‘llangan o‘xshatishlar, ma‘no ko‘chishlar baxshi ijodini yanada ko‘rkamlashtirgan. Maqolada baxshining ijod namunalari tarkibida uchrovchi metonimiya, metafora hodisasi va u tufayli yuzaga kelgan tejamkorlik haqida so‘z yuritiladi.*

**ANNOTATION**

*Fozil Yuldash’s son’s repertoire is rich and diverse in theme and genre. He knew more than forty folk epics by heart and sang with high skill. His epics are considered attractive in that they are spoken in the vernacular. At the same time, the metaphors used in his epics, the migrations of meaning, made Bakhshi’s work even more dazzling. The article talks about the phenomenon of metonymy, metaphor, which occurs in the composition of bakhshi’s creative samples, and the savings caused by it.*

**АННОТАЦИЯ**

*Репертуар Фозила Юлдаш Угли богат и разнообразен по тематике и жанру. Он знал наизусть более сорока народных былин и пел с высоким мастерством. Его эпосы привлекательны тем, что рассказываются на народном языке. В то же время аналогии, использованные в его эпосах, смысл миграции сделали творчество Бахши еще более ярким. В статье рассказывается о феномене метафора, метонимии, встречающемся в творчестве Бахши, и об экономии, вызванной этим.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *doston, baxshi, fozil yo‘ldosh o‘g‘li, epos, tejamkorlik, ortiqchalik, folklor, metonimiya.*

**KEYWORDS:** *saga, bakhshi, Fozil Yuldash’s son, epic, thrift, redundancy, folklore, metonymy.*

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** *эпос, бахши, Фозила Юлдаш Угли, эпос, бережливость, избыток, фольклор, метонимия.*

**KIRISH.** Fozil yo‘ldosh o‘g‘li ko‘pchillika ma‘lum va mashhur baxshi bo‘lib, uning ijodi juda keng hisoblanadi. U katta va kichik dostonlarni mahorat bilan kuylagan. Undan "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Murodxon", "Rustamxon", "Shirin bilan Shakar", "Go‘ro‘glining tug‘ilishi", "Avazxonning o‘limga hukm etilishi", "Malika ayyor", "Mashriqo", "Zulfizar", "Balogardon", "Intizor", "Nurali", "Jahongir", "Zevaxxon", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Baxrom va Gulandom", "Oshiq g‘arib" kabi 30 ga yaqin doston yozib olingan.

Baxshi so‘zga boy ijodkor sifatida har bir dostinni o‘zgacha ehtiros bilan kuylagan. U xalq uchun tushunarli, soda tilde ijod qilgan bo‘lsa-da, har bir misrasi maromiga

yetkazilgan. Masalan, uning tilidan aytilgan quyidagi parcha tahlil qilinsa, ko‘chimlar bilan bezatilgan, ammo ixsham va tushunarli bo‘lgan ijod namunasi ko‘rinadi:

Davring gullab, kulgay sening hayoting,  
Ish ko‘rsatsang, qolar dunyoda oting.  
Yovni ko‘rsang tosha kelsin g‘ayrating,  
Mahkam ushla qo‘lda keskir po‘lating,  
Maydonda sen yovga qashi arslon bo‘l!

Yuqoridagi namunada ishlatilgan metafora va metonimiyalar “Omading kelib, davrda davron surasan, hayoting davomida baxtli yashaysan. Omading kulsa, dunyoda noming qoladi” degan ma‘noni ilgari sursa, “po‘lat” deyish orqali po‘latdan yasalgan qilich ma‘nosi ta‘kidlangan. “Arslon bo‘l” moq esa arslon kabi kuchli, qo‘rqmas va qaytmas, jasur va dovyurak bo‘l, degan mazmuni ifodalaydi. Chunki qadimdan er yigitlar arslonga o‘xshatilgan. Ularning shijoati, kuch-g‘ayrati arslonnikidek bo‘lsin, degan maqsadda ayrimlar bolalariga “ARSLONBEK” degan ism ham qo‘yishgan.

ASOSIY QISM. Tilshunoslikdan ma‘lumki, metafora va metonimiyalar orqali yuzaga kelgan ko‘chimlar nutqni ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Fozil Yo‘ldosh O‘g‘li dostonlaridagi bunday birliklar ham ma‘noning chuqurligi, ammo tilde vazn talabi bilan ixchamlilik sabab yuzaga kelgan. Quyidagi tahlillar namunasi buni ko‘rish mumkin. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li anchagina dostonlar kuylagan bo‘lib, quyida uning “Jahon tinglagay” deb nomlangan dostonidagi metafora va metonimiyalar orqali yuzaga kelgan tejamkorlik tamoyillarini ifoda qilingan.

Zuluk sifat istaydi qon so‘rishni,  
Bizdan ko‘rsin it jag‘iga urishni...

Ushbu parchada ijodkor “istaydi qon so‘rishni” deyish orqali odamlarning qonini to‘kishni istaydi kabi ma‘noni ilgari surgan. Ikkinchi misradagi “It jag‘iga urish” deyish orqali dushmanga hujum qilishni, uning nomini o‘chirishni, kurashishni itning ja‘g‘iga urishga o‘xshatgan.

Yoshim yetmish ikki, o‘zim yigitman,  
Hiylagarning ishin ko‘rib bilibman.

Yuqoridagi parchada “yigitman” deyish orqali qahramon o‘zini yosh, ya‘ni yigitga o‘xshatgan. Bu orqali u yetmish ikki yosh bo‘lsam-da, kuchliman degan ifodani bermochi bo‘ladi.

Yo‘lbarsdayin yovni tikka bosamiz,  
Aldamchi tulkinining boshin kesamiz.  
Na‘ramiz shiddatin jahon tinglagay,  
Bosh kesgan tulkilar bunda ingragay.

Ushbu misralarda “Aldamchi tulki” deyish orqali yovlar, dushmanlar tulkiga o‘xshatilgan. Bu bilan dushmanlarning makkorligi, nomard, aldamchi ekanligi aytilgan.

Baxshining “Jizzax qo‘zg‘oloni” dostonida quyidagicha parcha bor:

Ustidagi kattalari,

Urush navbati kelgan so‘ng,  
Qilichin yalang‘och qilib,  
Do‘qlab urushga haydaydi,  
Bundan qancha odam o‘ldi.

Ushbu parchada “Kattalar” deyish orqali hokimiyat ustida turganlar, xonlar, podsho-yu vazirlar nazarda tutilgan, ya’ni ular katta lavozimlarni egallagan shaxlar. “Qilichin yalang’och qilmoq” esa qilichni qinidan chiqarmoq ma’nosiga mos tarzda yuzaga kelgan.

XULOSA. Xulosa qilib aytilsa, Fozil Yo’ldosh o’g’li ijodida uchrovchi metonimiya, metaforalar baxshining so’z boyligi qanchalar mukammalligi, uning so’z ustasi ekanligi aniq bo’ladi. Baxshi ijodida uchragan yuqoridagi ko’chimlar esa nutqning go’zalligi, ixchamligi va vazn talabini ta’minlab turadi. Bu orqali nutqiy tejamkorlik yuzaga keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “O’zbek xalq og’zaki ijodi”, O. Safarov. Toshkent, 2010 “Musiqqa” nashriyoti.
2. “O’zbek xalq og’zaki ijodi xrestomatiyasi”. T. Mirzayev, O. Safarov, D. O’rayeva. T., <Aloqachi>, 2008.
3. M.Murodova. Folklor va etnografiya. «Aloqachi,.. -T., 2008.
4. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo’rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov O‘ZBEK FOLKLORI (Darslik) Toshkent – 2020.